

## HODI ZARIFOV O‘ZBEK EPOSSHUNOSLIGI ASOSCHISI

**Barno Mirzayeva**

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada Hodi Zarifovning o‘zbek eposshunosligidagi o‘rni haqida so‘z yuritilib, olimning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Malika ayyor” dostoni haqidagi ilmiy qarashlari tahlilga tortilgan. Folklorshunos olim H.Zarifovning o‘zbek xalq dostonlarini o‘rganilishiga xoc tahlil usuli yoritiladi.

*Kalit so‘zlar:* folklor, folklorshunos, turkum, eposshunoslik, mifologiya, obraz, doston, dev, pari.

Ma’lumki, folklorshunos olim Hodi Zarifovning o‘tgan asr 30-yillar oxirlaridagi ilmiy faoliyatida xalq baxshilari va ularning repertuarini o‘rganish masalalari asosiy vazifasiga aylanganini kuzatish mumkin. Bunda olimning ilmiy faoliyatida an’anaviy xalq dostonlarining ayrimlarini alohida-alohida tadqiq etish va ularning matnlarini nashrga tayyorlash ishlari asosiy o‘rin tutadi. Xususan, folklorshunos olim tomonidan “Malika ayyor”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish” dostonlariga yozilgan so‘zboshilar qayta alohida nashr qilindi. Chunki bu so‘zboshilarda o‘zbek folklorshunosligi hamda o‘zbek dostonchiligi uchun nihoyatda ahamiyatga ega bo‘lgan Hodi Zarifovning qimmatli fikirlari, o‘zbek eposshunosligidagi ilmiy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Bir so‘z bilan aytganda, Hodi Zarifov mazkur maqolalari orqali xalq dostonlarini o‘rganish usullarini hamda o‘zbek eposshunosligining keyingi taraqqiyot yo‘lini belgilab berdi. Avvalo, mazkur maqola-tadqiqotlarning yuzaga kelishi folklorshunos olimning ilmiy faoliyatidagi tub burilish bo‘ldi. Hodi Zarifov mazkur maqolalari orqali o‘zbek eposshunosligiga ilk bor qo‘l urdi va dostonlarning o‘rganish nazariyasi va tahlil qilish usullarini ko‘rsatib berdi. O‘zbek eposshunosligida “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari alohida ahamiyatga ega. Shu bois Hodi Zarifov ham eposshunoslikda mavjud muammolarni bevosita “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari misolida hal qilishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ydi. Binobarin, olimning dastlabki “Malika ayyor” dostoniga yozilgan so‘zboshi hamda mazkur so‘zboshining qayta e’lon qilingan “Ajoyib doston” tadqiqot-maqolasi alohida ahamiyatga ega.

Mazkur maqola 1973-yilda Fozil shoirga bag‘ishlangan O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar 3-kitobida e’lon qilingan. Maqolada olim dastlab yozma adabiyotning shakllanishi hamda yozma manbalarning mavjudligi o‘laroq adabiyot tarixini belgilash mumkinligi haqida so‘z yuritib, har qanday yozma adabiyot namunasida xalq og‘zaki ijodining ta’siri mavjudligini misollar yordamida ko‘rsatib beradi: “Ayrim urug‘lari (masalan, uyshun) hatto milolddan ikki asr ilgari Ohangaron havzasida yashagan va qadimdan ajoyib madaniyatga ega bo‘lgan

o‘zbek xalqining kurashlarini, hayotlarini, orzu va tilaklarini ifoda etib kelgan boy og‘zaki badiiy ijodi borki, bu xazina o‘zbek yozuv adabiyotining tug‘ilishiga va takomiliga zamin bo‘lib keldi.

XI asrda xalqimiz o‘rtasida keng tarqalgan:

Osh totig‘i tuz

yoki

Birin-birin ming bo‘lur,

Toma-toma ko‘l bo‘lur

maqollarining bir necha asr so‘ng Alisher Navoiyga ilhom berishi va bu buyuk shoir ijodida:

Oshning ta‘mi tuz bilan;

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,

Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur

shaklida uchrashi folklorning yozma adabiyotimizga ta‘siri haqida eng juz‘iy bir faktdir” [Зариф X., 3:44].

Olim keyingi navbatda o‘zbek xalq dostonlari tarkibida mavjud “Go‘ro‘g‘li” dostonlari haqida ma‘lumot berib, bu turkum dostonlarini o‘rganilishi haqida to‘xtaladi: “Bizga juda tanish dostonchilarimizdan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Usmon Mamatqul o‘g‘li, Islom Nazar o‘g‘li, Po‘lkan, Bo‘ri baxshi, Bola baxshi, Abdulla shoir va boshqalar aytib kelgan dostonlari orasida bir necha sikl dostonlar ko‘ramizki, ulardan yirigi “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridir. Har biri ayrim-ayrim asardan iborat qirq doston deb yuritilgan bu sikldan biri “Malika ayyor” deb ataladi” [Зариф X., 3:45].

“Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumiga kiruvchi “Malika ayyor” dostonini folklor to‘plovchisi Muhammadisa Ernazar o‘g‘li Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olgan. “Malika ayyor” dostoni qo‘lyozmasining oxirgi sahifasida: “Bu “Malika ayyor” dostonini Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘lining og‘zidan eshitib aynan yozildi. Yozilish tarixi 1927-yilning 30-aprel oyinda (kuninda) yozilib tamom bo‘ldi. Yozib oluvchi: Isa Ernazar o‘g‘li, – deb yozilgan (ZO‘FA. Inv. №3).

Akademik To‘ra Mirzayev ta‘kidlaganidek, atoqli dostonchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li faqat epik asarlarni kuylab kelgan oddiy baxshigina emas, balki jonli og‘zaki dostonchilik an‘analarini yanada rivojlantirgan, o‘zi ham yangi-yangi doston va termalar yarata olgan, yuksak badihago‘y san‘atkor edi. U qahramonlik, romanik, tarixiy dostonlar hamda kitobiy dostonlarning eng yaxshi namunalari kuylab kelgan.

Hodi Zarifov ma‘lumotiga ko‘ra, ulkan san‘atkor qirqdan ortiq dostonlarni, juda ko‘p termalarni yod bilgan. “Fozil shoir o‘zbek xalq dostonchiligida ulkan

san’atkor, buyuk dostonchi hisoblanadi. U xalq tili, ta’birlari, urf-odatlar va xalq ruhini yaxshi bilardi” [Зарифов Х., 2:28].

Kuylagan dostonlari xilma-xil va rang-barang bo‘lgan Fozil shoir ijodkor dostonchi edi. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlardan ettita doston atoqli baxshidan (“Avazxonning o‘limga hukm etilishi”, “Balogardon”, “Zulfizar bilan Avaz”, “Intizor”, “Malika ayyor”, “Mashriqo”, “Nurali”) yozib olingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan Hodi Zarifov 1927-yildan boshlab doston va termalar yozib olish bilan birga 1941-yildayoq uning “Malika ayyor” dostonini so‘zboshi-tadqiqotlar bilan nashr etgan.

“Malika ayyor” dostoni, – deb yozadi Hodi Zarifov, – boshdan-oyoq mifologiya bilan to‘la. Bu dostondagi personajlarning ko‘pi devlar, parilar bo‘lib, ular butun doston bo‘ylab tizilib ketgan. Voqealar, asosan, dev va parilarning sehrli bog‘larida, tilsimli saroy va qo‘rg‘onlarda boradi. Parilar insoniy ishq va muhabbat tashiganlari kabi erkakdan botirlik, chidam, iqtidor va hunar talab qiladilar. Devlar insonga kerak vaqtda yordam berishga, erda yurish, osmonda uchish va er ostiga olib kirishga, inson va hayvonlarning turli qiyofaga kiritishga qodir maxluqlardir. Dev va parilarning ham o‘z podsholari, amaldorlari, lashkar va lashkarboshilari bor. Ular ham naqshli saroylarga, ajoyib go‘zal bog‘larga, mustahkam qo‘rg‘onlarga egadirlar. Bugina emas. “Malika ayyor” dostonida inson ham turli qiyofalarga, shakllarga kira oladi. Masalan, inson zarurat chog‘ida lochin, yumron, uzuk, sichqon, o‘qilon va hokazolar shakliga kirib, o‘z orzusi uchun kurashini davom ettiradi. Bu tushuncha islom dini va shariat qonunlariga xilofdir. Musulmonlar tasavvuriga sig‘magan miqlar va real hayotdan olingan ajoyib fantaziyalar bilan to‘lgan “Malika ayyor” dostonining asosi xalqimizning islomgacha bo‘lgan hayot va e’tiqodlari bilan bog‘langandir... “Malika ayyor” dostoni kuchli ishlangan fantaziyalar bilan, boshdan-oyoq tizilib borgan mifologiya boyligi bilan hamma dostonlarimizdan ajralib turadi... Dostonda kishi qarshisiga ketma-ket turli-turli qarshiliklar, kuchli to‘sqinliklar qo‘yiladi. Haybatli uchar devlar, vahimali ajdarlar, tilsimli tog‘lar, zaharli chashmalar, sehrli olovlar, issiq, suvsiz, qumli cho‘llar va boshqalar o‘z orzusi yo‘lida dadillik bilan qadam qo‘ygan insonni mahv etishga o‘z qoladilar. Inson turli taraddudlar bilan ularni doim yengadi, o‘ziga bo‘ysundiradi, yo‘q etadi” [Зарифов Х., 3:47–51].

Abdulla Nurali o‘g‘lining “Malika ayyor” dostonida Go‘ro‘g‘li Malika bilan uchrashgach, Malika kaptar bo‘lib o‘z yurtiga uchib ketadi, Go‘ro‘g‘li esa, burgutga aylanib uni quvadi. Shunda Malika kaptarlar galasiga kirib yashirinadi. So‘ng Go‘ro‘g‘li parini olib kelish uchun Avazni yuboradi. Fozil shoir Go‘ro‘g‘lining burgutga aylanishini tanqid qilgan edi, chunki bu motiv dostonda rivojlantirilmaydi. Modomiki, Go‘ro‘g‘li burgutga aylanib, parini tutishi mumkin ekan, unda juda ham

mashaqqatli safarga Avazni yuborishga hojat ham qolmasligi kerak edi [Мирзаев Т., 6:80]. Fozil shoir kuylagan “Malika ayyor” dostonida tasvirlanishicha, Go‘ro‘g‘li Zebit cho‘lidagi Shopar ko‘lida g‘aroyib bir qo‘rg‘onga kirib qoladi. Go‘ro‘g‘li qo‘rg‘on ichidagi ajoyibotlarni tomosha qilib turganida, “osmondan bir ko‘k kaptar quyulib kelib, bir og‘nab turib, bir surxayil gardon, ofati jon, pista dahan bir ajib nozanin pari bo‘lib” [Малика айёр., 5:7-8] turadi. Go‘ro‘g‘liga o‘zining manzil-makonini, nasl-nasabini ma‘lum qilganidan keyin yana bir ag‘anab turib, kaptar libosini kiyib falakka parvoz qilib uchib ketadi.

Xalqimizning eng qadimgi animistik tasavvurlariga qaraganda, odamning joni qush yoki chivin ko‘rinishiga enish xususiyatiga ega emish. Ajoyib afsonalar dostonlarda juda ko‘p, ammo odamning joni to‘g‘risida ham devlarning joni haqidagi afsonaga o‘xshash bir kichik afsona bor: “Odamning joni ham jasadiga yarasha, odamning joni chibinday bo‘lar emish. Agar odam tush ko‘rsa, joni burnidan chiqib, ko‘p joylarga borib kelar emish. O‘sha yurganida jon nimani ko‘rsa, odam uyquda uning aksini ko‘rib, shuni “tush” deb atar emish” (ZO‘FA. Inv. №1713/7–16). Odam jonining qush ko‘rinishiga kirishi haqidagi mifologik tasavvurlar jahon xalqlari folklorida keng tarqalganligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Rahmatulla Yusuf o‘g‘li yozib olgan xalq qarashlariga ko‘ra, “devlarning joni kabutar suvratida namoyon bo‘lib turadi, deydilar. Aytishlaricha, dev nafas olganda joni kabutarday og‘zidan kirib-chiqib turarkan, ya‘ni nafas chiqarsa, dalaga bir quloch parvoz qilib, nafasni tortsa, tomog‘idan kirib ketib turadi” [Нарзикулова М., 9:41].

Ma‘lumki, o‘lkamizga islom dini yoyilishi munosabati bilan xalq og‘zaki badiiy ijodiyotiga arab folklori va mifologiyasiga taalluqli ko‘plab asotiriy obrazlar ham kirib kela boshlagan. O‘zbek mifologiyasi taraqqiyotidagi bu bosqich “arab-islom mifologiyasi” deb atalgan. M.Jo‘rayev va Sh.Shomusarovlarning yozishlariga qaraganda, “VII asr oxirida Movarounnahr arablar tomonidan fath etila boshlangan bo‘lib, bu jarayon VIII asr o‘rtalarida nihoyalangan. Natijada, bu o‘lkaga yoyilgan islom dini O‘rta Osiyoga Sharq xalqlari mifologiyasi va folklorining epik an‘analariga mansub syujet, motiv va obrazlarni ham olib keldi. Garchi islom mifologiyasining tarkibi ko‘pqatlamli bo‘lib, o‘zak miflar (arab asotirlari) hamda o‘zlashtirma asotirlar (ya‘ni keyinchalik fath etilgan xalqlar folklori va boshqa diniy qarashlarga aloqador miflar)ni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, uning asosini qadimgi arab qavmlarining og‘zaki ijodi namunalari tashkil etgan” [Жўраев М., Шомусаров Ш., 1:46].

Qadimgi arab mifologiyasining tadqiqotchilaridan biri A.G.Lundinning aniqlashicha, Suriya hududidagi sahroda istiqomat qilgan qadimgi arab qavmlarining asotiriy qarashlari silsilasida Allat, Uzzo va Manot kabi ilohlar

to‘g‘risidagi afsonalar ham mavjud bo‘lgan. Allat barcha boshqa ilohlarning onasi deb tasavvur qilingan. Arabistonning markaziy hududlarida yashagan qadimgi arab qabilalarining islomdan avvalgi mifologiyasida esa Allat, Manat va Uzzo Ollohning qizlari sifatida e‘tirof etilgan ekan [Лундин А.Г., 4:395].

“Navoiy asarlari lug‘ati”da Lotu manot, Lotu uzzo so‘zlari “islomdan ilgari arablar cho‘qingan butlarning nomi” deb izohlangan [Навоий асарлари луғати., 8:340]. Demak, Lot, Manot va Uzzo obrazlari islom asotirlari bilan birgalikda O‘rta Osiyo mifologiyasiga kirib kelgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotda islomiyatdan avvalgi ilohlar nomi, mushriklar sig‘ingan ma‘budlarning atamasi sifatida tasavvur qilingan. Bu obrazlar xalq og‘zaki ijodiyotida, ayniqsa, dostonlarda an‘anaviy tarzda qo‘llanilganligini “Malika ayyor” dostonida quyidagi parchadan ham ko‘rish mumkin: “Maqotilning uch botmon kaltagi bor edi, shuni ko‘tarib: “Xabardor bo‘l, Avaz! Yo Lot!” – deb Avazning boshiga urdi, kaltagi tariqday bo‘lib tirqirab ketdi” [Малика айёр., 5:26].

Xullas, dostonda qo‘llanilgan Xizr, Lot, Manot, Uzzo, pari, dev, kabutar, ajdar, Sulaymon, Nuh, Eram, Azroil, Jamshid, jin kabi mifologik obrazlarning har biri muayyan poetik funksiyani ado etadi. Dostondagi ana shu mifologik obrazlar tarkibining yuzaga kelishida voqelikning badiiy idrok etish an‘anasining dastlabki davrlari muhim ahamiyatga ega sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001.
2. Зарифов Х. Фозил шоир – машхур дostonчи / Фозил шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 3-китоб. – Тошкент, 1973. – Б.5-29.
3. Зариф Х. Ажойиб дoston / Фозил шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 44-58.
4. Лундин А.Г. Древнеарабская мифология / Мифы народов мира. Т.1. – М., 1992. – 395 с.
5. Малика айёр. Дostonлар / Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
6. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – 152 б.
7. Мирзаева Б. Ўзбек фольклоршунослиги шаклланиши ва тараққиётида Ҳоди Зарифовнинг ўрни: Филол. фан. б-ча фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 170 б.
8. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – 340 б.
9. Нарзикулова М. “Сабаи сайёр” дostonида фольклоризмлар ва ўзбек фольклорида Баҳром сюжетининг талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 130 б.